
Arzon, barqaror narxlarda

Shahrimizning beshta hududida yangi yil savdosi yarmarkalari faoliyat ko'rsata boshladi.

«Viloyat hokimligining Yangi yil bayrami arafasida va bayram kunlari ijtimoiy muhim turdagi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tizimli va yetarli miqdorda yetkazib berish hisobiga aholi ehtiyojini kafolatli qondirish hamda narxlarni barqaror saqlanishini ta'minlash haqida»gi yig'ilishi bayoni topshiriqlarini bajarilishini ta'minlash maqsadida shahrimiz markazi, Yangi Marg'ilon va Ipakchilar shaharchalari, "Chilonzor" va "Vatan" mahalla fuqarolar yig'ini xududlarida arzonlashtirilgan bayram savdo yarmarkalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

— Savdo yarmarkalarimizda oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, qandolatchilik, go'sht mahsulotlari, tuxum, yaxna va spirtli ichimliklarning keng assortimentdagi savdosi yo'lga qo'yilgan, -deydi «Dehqon bozori» Aj raisi Ibrohimjon Azizov. — Shu kunga qadar Buvayda, Toshloq, Qo'shtepa va Yozyovon tumanlaridan birlashtirilgan fermer xo'jaliklari tomonidan 14500 kg. go'sht, 200 kg. baliq, ko'plab meva va sabzavotlar keltirilib arzon narxlarda aholiga sotildi. Yarmarka savdolari 2018 yil 10 yanvarga qadar davom etadi. Yarmarka savdosi pavilonlarida yangi yil dasturxoningiz uzun zarur bo'lgan barcha mahsulotlar mavjud.

Zero, bayram savdo yarmarkalarida amalga oshirilayotgan ishlar tegishli mas'ullar tomonidan nazoratga olinib borilyapti. Shunday ekan, arzon, barqaror oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va boshqa kundalik ehtiyoj mahsulotlari xarid qilishni istasangiz savdo yarmarkalariga marxamat qiling!

M.MIRZAJONOV,

o'z muxbirimiz.

D.RAHMONOV olgan surat.

"Marg'ilon haqiqati" gazetasidan olindi.

2017-12-24 07:40:53